

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» «Scientific journal of the Fergana State University» jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

TARIX

Sh.Hakimova	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
I.Bohodirov, B.Jurayev	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari	140
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya	158
S.Istroilova, G.Karimova	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev	
Ogahiy tarixiy va lirk asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik	182
E.Qurbanova	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev	
So'z yasalishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'idosheva	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Порубай	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi	238

AYRIM FORSIY FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZBEK TILIDA QO'LLANILISHI XUSUSIDA

ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ НЕКОТОРЫХ ПЕРСИДСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

ON THE USE OF SOME PERSIAN PHRAZEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE

Alimova Zarifa Vaxobovna¹

¹Alimova Zarifa Vaxobovna

– FarDU tilshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilshunoslida fundamental ahamiyatga ega bo'lgan frazeologik birliklar haqida, ularning semantik tuzilishi tilning lug'at boyligini ko'rsatuvchi muhim xususiyatlardan biri ekanligi haqida so'z yuritiladi. Frazeologik birliklarni o'rganishning metod va usullari juda ko'p. Xususan, struktural-tipologik metod, variatsion metod, kontekstologik metod, komplikativ metod va boshqa shu kabi metodlar frazeologik birliklarni o'rganishda juda muhimdir. Maqolada barcha tillarda barqaror so'z birikmalari mavjud bo'lib, ulardan foydalanish orqali nutqdagi fikr ma'nosi anglashilishi borasida ham fikr-mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, fors tilida qo'llanuvchi ayrim frazeologizmlar va ularning o'zbek tilidagi muqobilillari haqida to'xtalib o'tiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются фразеологизмы, имеющие фундаментальное значение в узбекском языкоznании и об их семантической структуре, которой является одной из важных характеристики лексического богатства языка. Существует множество методов и приёмов изучения фразеологизмов. В частности, большое значение при изучении фразеологизмов имеют структурно-типологический метод, вариационный метод, контекстологический метод, комплексный метод и другие подобные методы. Статья содержит устойчивые словосочетания на всех языках и использует их для обсуждения значения идей в речи. Также будут обсуждаться некоторые персидские идиомы и их узбекские варианты.

Abstract

This article discusses the phraseological units that are of fundamental importance in the Uzbek linguistics, and their semantic structure is one of the important features of the lexical richness of the language. There are many methods and techniques for studying phraseological units. In particular, the structural-typological method, variational method, contextological method, complex method and other similar methods are very important in the study of phraseological units. The article contains stable phrases in all languages, and uses them to discuss the meaning of ideas in speech. Some Persian idioms and their Uzbek alternatives will also be discussed.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, tilning leksik boyligi, o'zlashgan so'zlar, semantic o'zgarishlar, til leksikologiyasi, forscha frazeologiya.

Ключевые слова: фразеологические единицы, лексическое богатство языка, заимствованные слова, семантические изменения, лексика языка, персидская фразеология.

Key words: pharaseological units, lexical richness of a language, borrowed words, semantic changes, language lexicology, Persian phraseology.

KIRISH

Frazeologik birliklar kelib chiqishi jihatidan juda qadimiy hisoblanadi. Tilshunoslarning frazeologiya bo'limini o'rganish va frazeologik birliklarni tadqiq etish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. B.Yo'ldashev ta'kidlaganidek, frazeologiya masalalarini tadqiq etish uning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi, tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi [2,7]. A.Mamatovning fikricha, XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda ularning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan [4,7]. Frazeologik birliklar so'zlardan iborat bo'ladi hamda nominativ vazifani bajaradi.

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon tilshunoslari frazeologiya sohasida qator ilmiy izlanishlar olib borganlar. Frazeologik birliklarni o'rganish tilshunoslarni XIX asrdan qiziqtirib kelgan bo'lsada, frazeologiyaning nazariy va amaliy masalalarini o'rganishga qo'yilgan qadam XX asrning 40-yillarda rus akademigi V.V.Vinogradov tomonidan amalga oshirildi [6,7]. V.V.Vinogradovning rus tilida frazeologizmlar,

ularning taraqqiyot bosqichlari yuzasidan olib borgan ishlari N.O.Nazarovning "Соматические фразеологизмы ишкамишского языка" mavzusida filologiya fanlari nomzodligiga oid tadqiqotda o'z aksini topgan.

Biz tadqiq etayotgan ushbu ilmiy maqola fors tilidagi frazeologizmlarni o'rganishga bag'ishlanadi. Fors tili frazeologiyasini o'rganish va tadqiq etishga bir qancha tilshunos olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Jumladan, Yu.A.Rubinchik, L.S. Peysikov, X.Majidov, F.I.Zulfigarova, V.S.Rastorguyeva, R.Farhodi, V.A.Frolova, Yu.Yu.Avaliani, G.S.Gvensadze va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarini fors tilidagi frazeologiya tadqiqiga bag'ishlaganlar. Yu.A.Rubinchik o'zining "Основы фразеологии персидского языка" asarida ta'kidlaganidek, eronshunos olimlar o'rtasida jiddiy tortishuv va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradigan muammolar qatoriga umumfrazeologik masalalarni ham kiritish mumkin: ular nafaqat frazeologizmning o'ziga xos xususiyatlari, balki umumiy nazariyasiga ham tegishli bo'lgan muammolar sanaladi [8,7].

Frazeologik birliklarni o'rganishning metod va usullari juda ko'p. Xususan, struktural-tipologik metod, variatsion metod, kontekstologik metod, komplikativ metod va boshqa shu kabi metodlar frazeologik birliklarni o'rganishda juda muhimdir.

Rus eronshunoslaring ta'kidlashlaricha, rus tilida ham barqaror so'z birikmalari mavjud bo'lib, ulardan foydalanish orqali nutqdagi fikr ma'nosi anglashiladi. Frazeologik birliklar semantik jihatdan bo'linmaydi. Ularning tarkibiy qismlari boshqa so'zlar bilan almashtirilmaydi yoki to'ldirilmaydi [11,114].

O'zbek tilshunoslari tomonidan ham bu sohaga doir bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan, hozirda ham bu jarayon davom emeqda. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" mavzusidagi doktorlik ishi va shu asosda yaratilgan monografiyasida esa frazeologizmlardagi ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, variatsiya, antonimiya, shakldoshlik hodisalari o'ttiz mingdan ortiq kartochkalar tahlili asosida ochib berilgan edi. Umuman olganda, Sh.Rahmatullayev to'g'ri ta'kidlaganidek, "variantlashish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, ma'no birligi saqlanadi. Variantlashish tufayli yuz beradigan o'zgarishlar iboralarga xos yaxlitlikni yemirmaydi, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda yo ibora yo'qqa chiqadi, yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi" [3,8]. Professor Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlari o'zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojida alohida qimmatga ega bo'ldi. Shunga ko'ra Sh.Rahmatullayev haqli ravishda o'zbek frazeologiyasining asoschisi sifatida tan olingan.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek tilshunoslida frazeologiya sohasida juda ko'p ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbek tilshunoslida frazeologizmlarni grammatik, semantik va uslubiy jihatdan tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Frazeologik birliklarni kompleks, konseptual-kognitiv va lingvokulturologik tahlil etish, frazeologik birliklarning (keyingi o'rinnarda FB) lingvokulturologik mohiyatini, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash masalalarini kompleks tadqiq etish bugungi tilshunoslilikning dolzarb muammolaridan biridir.

S.N.Muratov talqiniga ko'ra, FBlar erkin so'z birikmalaridan quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi: a) semantik yaxlitlik; b) obrazlilik; v) ko'chma ma'nolilik [5,115].

FBlar ko'p qirrali bo'lib, turli-tuman semantik va sintaktik hodisalarni qamrab oladi. A.Mamatovning ta'kidlashicha, nutqimiz nafaqat so'zlarga, balki so'z birikmalar, gaplarga ajraladi. *Bo'yniga qo'ymoq, yerga urmoq, og'iz ochmaslik, to'nini teskari kiymoq, qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urmoq* kabi FBlar tarkibidagi har bir so'z o'zlarining leksik ma'nolaridan birini ifoda etadi. So'z birikmalarining ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari asosida izohlanib, har biri erkin birikma tarzida idrok etiladi. *Kosani yerga urib chilparchin qildi* gapida erkin birikma tarzda ishlatilib, tarkibidagi yer va *urmoq* so'zlarining o'zaro uyg'un ma'noviy hamda sintaktik birikuvidan "kosani yerga urish bilan bog'liq harakat"ni ifodalovchi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nosidan kelib chiqadigan ma'noni bildiradi. Tilshunoslarda bunday birikmalar erkin so'z birikmalarini deyiladi. Erkin so'z birikmalarining ma'nolari tarkibidagi komponentlari ma'nolarining umumlashuvidan kelib chiqadi [4,8].

Leksik birliklar kabi FBlar ham ma'lum bir grammatik tizimda semantik mazmunni ifodalovchi ichki va tashqi shaklga ega bo'ladi. Frazeologiya ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya hisoblanadi. Masalan, *kuchaymoq* (leksema) – *avj olmoq* (frazema), *qynalmoq* (leksema) – *aziyat chekmoq*

TILSHUNOSLIK

(frazema). H.Jamolxonov qayd etganidek, frazema ham, leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi [1,138].

O'zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar qo'shma so'zlar va frazeologizmlar bir-biridan aniq farqlanmay kelinayotir. Masalan, U.Tursunov, J.Muxtorovlar ham "Hozirgi zamon o'zbek tili" nomli qo'llanmasida *quloq sol, nazar tashla, ko'ngil qo'y* singari fe'l frazeologizmlarni qo'shma fe'llar sifatida talqin etgan edilar [9,138].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida jahon, rus hamda o'zbek tilshunoslari frazeologiya sohasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, barcha tillarda frazeologik birliklar shakl va mazmun munosabatidagi lisoniy birlik hisoblanib, tilning lug'aviy boyligini tashkil etadi. Fors tilida ham frazeologizmlar qo'llanish doirasi juda keng. Ushbu maqolada "suv" آب "ob" leksemasi bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar va ularning o'zbekcha muqobilari haqida to'xtalib o'tiladi. Odatda boshqa tilda uchraydigan frazeologizmlar ma'lum bir tilda o'z muqobiliga ega bo'ladi. Lekin ayrimlarining muqobilini topish qiyin. Sababi, ularning muqobili aynan frazeologizm ko'rinishida emas, oddiy gap ko'rinishida bo'ladi. Demak, "suv" آب "ob" leksemasi bilan bog'liq frazeologizmlarni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:



1. O'zbek tilidagi muqobili frazeologizm ko'rinishida uchraydigan birikmalar.
2. O'zbek tilida gap ko'rinishida uchraydigan birikmalar.

O'zbek tilidagi muqobili frazeologizm ko'rinishida uchraydigan birikmalarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- a) *xo'dro be obu otash zadan* – خودра به آب و آتش زدن o'zini suv va olovga urmoq. O'zbek tilida ushbu frazeologizm "o'zini o'tdan cho'qqa urmoq" ko'rinishidagi iboraning muqobilidir.
- b) *ob az dastash namichekad* – آب از دستش نمی چک qo'lidan suv tommaydi. Bu frazeologizm o'zbek tilida "tomsa yalaydigan" (xasis) shaklidagi iboraga muqobilidir.
- v) *ob dar juye u ravon ast* – آب در جوی او روان است uning arig'idan suv oqib o'tadi. Mazkur frazeologizmning o'zbek tilida "omadi kelgan", "oshig'i olchi" kabi muqobilillari mavjud.
- g) *obash dar kart-e oxer ast* – آبش در کرت آخر است uning suvi yer (gektar)ning oxirida. O'zbek tilidagi "bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda" iborasi mazkur FBga muqobil bo'la oladi.
- d) *ob dar cheshm (dide) nadoshtan* – آب در چشم نداشتن uning ko'zida suvi (ko'z yoshi) yo'q. O'zbek tilida mazkur FBning "qahri qattiq", "diydasi qattiq" degan muqobilillari mavjud.

Yuqoridagi misollardan ko'rinaladi, fors tilidagi "suv" leksemali frazeologizmlarni o'zbek tilida ifodalash uchun "suv" leksemasi ishtiroy etmagan. Aksincha, o'zbek tilida gapning sintaktik va semantik tuzilishiga mos keluvchi boshqa komponentlardan foydalanilgan.

O'zbek tilida gap ko'rinishida uchraydigan birikmalarga quyidagi forscha frazeologizmlarni keltirish mumkin:

- a) *ob dar dahonash xo'shk sho'd* – آب در دهانتش خشک شد suv og'zida qurib qoldi. O'zbek tilida ushbu frazeologizmni "qattiq qo'rqib ketdi" deya ifodalash mumkin.
- b) *ob be ru-ye otash-e kasi (chizi) zadan (rixtan)* – آب بروی آتش کسی (چیزی) زدن (ریختن) biror kishining oloviga suv sepmoq (quymoq). O'zbek tiliga "biror kishini tinchlantirmoq" deb tarjima qilish mumkin.
- v) *ob zir-e jo-ye kasi kardan* – آب زیر جای کسی کردن biror kishining joyiga suv sepmoq. O'zbek tilida ushbu birikmaning muqobili uchramagani sababli uni "biror kishiga zarar yetkazmoq" tarzida ifodalash mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har qanday turdagи frazeologik iboralarni bir tildan ikkinchi tilga to'g'ri tarjima qilish oson ish emas, chunki bu iboralarning ma'nosi ularni tashkil etgan komponentlarning ayni paytdagi mavjud ma'nosidan kelib chiqmaydi. Frazeologizm obyekti uni to'g'ri tarjima qilish kerakligini belgilovchi omildir.

Fors tilida “ob” - آب “suv” leksemasi ishtirokida hosil bo’lgan ayrim gaplar ham o’z ma’nosida, ham ko’chma ma’noda qo’llanishi mumkin:

obro gelolud kardan - آبرا گل آلد курдн *suvni loyqalatmoq*: o’z ma’nosida “suvni loyqa qilmoq”, ko’chma ma’noda “ishning pachavasini chiqarmoq”.

Fors tilidagi frazeologizmlarda “suv” leksemasi izofiy birikma tarkibida kelishi va gapda aniqlanmish vazifasini o’tashi mumkin. Masalan:

ob-e xush az go’luyash poyin naraft – آب خوش از گلویش پایین نرفت *uning tomog’idan shirin suv o’tmadı*. Jumlada keltirilgan “ob-e xush” (yoqimli suv, shirin suv) izofiy birikmasi aniqlanmish (*xush*) va aniqlovchi (*ob*) o’rtasidagi bog’lanishdan hosil bo’lgan bo’lib, -e esa ularni bog’lovchi izofa ko’rsatkichidir. O’zbek tilida ushbu frazeologizmni “*tomog’idan qil o’tmadı*” iborasi orqali ifodalash mumkin.

Farzona Shafeiy o’zning “Проблемы обучения русской глагольной фразеологии носителей персидского языка” mavzusida filologiya fanlari nomzodligi yuzasidan yozgan avtoreferatida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Gapdagi so’zlarning qat’iy tartibidan kelib chiqadigan Eron tillari frazeologiyasining o’ziga xos xususiyatlaridan biri qo’shma fe’llarning “ramka konstruksiyasi” deb ataluvchi distant holatida kelishidir”[10,7]. Qo’shma fe’llarning distant holatida fe’lning ot qismi gap boshida, ko’makchi fe’l qismi esa gap oxirida keladi. Bunday holatga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

ob be osyob-e kasi rixtan – آب به آسیاب کسی ریختن *biror kishining tegirmoniga suv quymoq*. O’zbek tilida mazkur frazeologizmning muqobili yo’qligi bois “biror kishiga yordam bermoq” deb tarjima qilish mumkin.

ob be surox-e murche rixtan – آب به سوراخ مورچه ریختن *chumolining iniga suv quymoq*. O’zbek tilida “biror shaxsning tinchini buzmoq” iborasiga to’g’ri keladi.

Keltirilgan har ikki jumlada ham *ob rixtan* – آب ریختن – *suv quymoq* qo’shma fe’li distant holatda qo’llanilgan bo’lib, fe’lning ot qismi *ob* آب (suv) frazelogizmning boshida, *rixtan* ریختن (*quymoq*) esa oxirida keltirilgan.

O’zbek tilida ham “suv” leksemali frazeologizmlarni ko’p uchratish mumkin. Jumladan, “*biror kishining boshidan suv quymoq*” (biror shaxsning tinchini buzmoq; kulfat, balo keltirmoq), “*suv quyganday*” (jimjit, tinch), “*suvga oqizmoq*” (befoya sarflamoq, deyarli tekinga bermoq) [7,216], “*suvdan quruq chiqmoq*” (har qanday faziyatda ham qutulib qolmoq) va boshqalar. Keltirilgan FBlardan “*biror kishining boshidan suv quymoq*” fors tilidagi *ob zir-e jo-ye kasi kardan* – آب زیر جای کسی کردن *biror kishining joyiga suv quymoq* FBga sinonim bo’la oladi.

“Boyadan beri *suv quygandek* jimjit bo’lib turgan sinfonada to’satdan qahqaha portladi” (O’.Hoshimov, Dunyoning ishlari, 179-b.)

“Kerak bo’lsa, o’zini tomdan tashlaydi, *suvdan quruq chiqadir*” (O.Muxtor. O’yin (hikoya)).

“Shuncha pulni qaerdan topasiz va nima uchun davlatingizni *suvga oqizasiz?*” (O’zbek xalq ertagi, Uchar gilam).

Yu.A.Rubinchikning talqiniga ko’ra, FBlarning tabiatи masalasida uchta nuqtai nazar mavjud. Birinchi qarash tarafдорлари FB tarkibiga komponentlarning ma’nolari butunlay qayta anglangan barqaror birliklarni kiritadilar. Ikkinci qarash tarafдорлари FB tarkibiga nafaqat komponentlarning ma’nolari qayta o’ylab topilgan barqaror birliklarni, balki komponentlardan birining o’z leksik ma’nosini saqlab qolgan FBlarni ham kiritadilar. Uchinchi qarash tarafдорлари barcha tarkibiy qismlari tom ma’noda saqlanuvchi idiomatik bo’lmagan FBlarni ham kiritadilar [8,12-13]. Ikki jildli forscha-ruscha lug’at tarkbidagi barqaror birliklarni o’rganish FBlarni keng ma’noda tushunishga yordam beradi. Yu.A.Rubinchik FBlarning quyidagi to’rtta xarakterli jihatiga e’tibor qaratish zarur deb hisoblaydi: birinchidan, frazeologiyaga komponentlari qisman yoki butunlay o’z ma’nosini yo’qotadigan keng semantik diapazondagi birliklarni kiritish; ikkinchidan, frazeologiyaga nafaqat so’z birikmasi strukturali barqaror birliklarni, balki gap strukturali barqaror birliklarni ham kiritish; uchinchidan, FBlar orasida barqarorlikning semantik va struktur-grammatik belgisi bilan xarakterlanuvchi tarkibili terminlar va nomlarni ko’rib chiqish; to’rtinchidan, FB tarkibiga modellashtirilgan barqaror birliklarni kiritish: ot modelli, fe’l modelli va gap modelli [8,15-16].

XULOSA

Xulosa sufatida shuni ta’kidlash mumkinki, o’zbek tili lig’at tarkibida fors tilidan o’zlashgan leksik birliklardan tashqari frazeologik birliklar ham salmoqli o’rin tutadi. Odatda boshqa tilda

TILSHUNOSLIK

uchraydigan frazeologizmlar ma'lum bir tilda o'z muqobiliga ega bo'ladi. Lekin ayrimlarining muqobilini topish qiyin. Sababi, ularning muqobili aynan frazeologizm ko'rinishida emas, oddiy gap ko'rinishida bo'ladi. Ana shunday frazeologik birliklarni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq etish zamonaviy o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.–Toshkent, "Talqin", 2005. -bet 260. (Джамолхонов Х. Современный узбекский литературный язык – Ташкент, Толкование)
2. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologoyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti (Monografiya).- Samarcand, 2013. –bet 116. (Юлдашев Б. Становление и развитие узбекской фразеологии и фразеографии (Монография).- Самарканд)
3. Yo'ldashev B., Adashullayeva G. O'zbek tilida o'zlashma frazeologizmlarning semantik-uslubiy xususiyatlari. – Samarcand, 2012. –bet. 102. (Юлдашев Б., Адашуллаева Г. Семантические и методологические особенности идиоматических фразеологизмов в узбекском языке. –Самарканد)
4. Mamatov A.E. O 'zbek tili frazeologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2019.-bet 204. (Маматов А.Е. Узбекская фразеология. Учебное пособие. – Ташкент)
5. Muratov S.N. Ustoychivye slovoschetaniya v turkskix jazykax. - Москва, 1960. - 215стр. (Muratov S.N. Turkiy tillardagi iboralarni o'rnatish. – Moskva)
6. Nazarov N.O. Somaticheskie frazeologizmy ishkaшимского языка. Avtoreferat diss. kand. nauk.-Dushanbe. 2008. -23 стр. (Nazarov N.O. Ishqoshim tilining somatik frazeologik birliklari. Dissertatsiya avtoreferati fanlar nomzodi – Dushanbe)
7. Rahmatullayev Sh.O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1978. –bet 407. (Рахматуллаев Ш. Анnotated фразеологический словарь узбекского языка. - Ташкент: Учитель)
8. Rubinchik Yu.A. Osnovy frazeologii persidskogo jazyka. Glavnaya redakcija vostochnoj literatury. – Москва, «Наука», 1981. -276 str. (. Rubinchik Yu.A. Forscha frazeologiyaning asoslari. Sharq adabiyotining bosh nashri. - Moskva, "Nauka")
9. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi zamon o'zbek tili (morphologiya).-Samarqand, SamDU nashri, 1960. –bet 400. (урсунов Ю., Мухторов Дж. Современный узбекский язык (морфология).- Самарканд, издание СамГУ.)
10. Farzaneh Shafigi. Problemy obucheniya russkoy glagolnoy frazeologii nositeley persidskogo jazyka. Avtoref.diss.kand.nauk. –Moskva, 2013. -23стр. (Farzaneh Shafi. Fors tilida so'zlashuvchilarga rus tilidagi og'zaki frazeologiyani o'rgatish muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasining avtoreferati. –Moskva)
11. Xademi Mog'addam M., Rezai M. Sopostavitelnyj analiz persidskix frazeologizmov s komponentom belogo i chernogo cvetov i ikh russkix ekvivalentov. Filologicheskie nauki v MGIMO. –Moskva, №16. 2018. - 146 str. (Khademi Mog'addam M., Rezai M. Oq va qora ranglar komponenti va ularning ruscha ekvivalentlari bilan fors frazeologik birliklarining qiyosiylahili. MGIMO da filologiya fanlari. –Moskva)

(Taqrizchi: SH.Iskandarova – Filologiya fanlari doktori, professor)